

AMIR TEMUR VA TEMURIYLARNING ILM-FAN VA MADANIYATNI
RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Ergashova Ruxshona Tavakkal qizi

E-mail: ergashovaruxshona2@gmail.com, tel (99895) 087 96 26

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tarix yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Sulaymonova Shoxsanam Absamatovna +998944089054

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat sohasidagi yutuqlar va ilm ahlining qo'llab quvvatlanishi, Temur faoliyatidagi ilm-fan va madaniyatga bo'lgan munosabati hamda davlatning madaniy sohani rivojlantirishdagi roli haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, ilm-fan, madaniyat, tarixiy taraqqiyot, renessans, Temur tuzuklari.

O'tmishdan ma'lumki, Amir Temur va temuriylar davri madaniyat va ma'naviyat, adabiyot va san'at, umuman olganda ilm-fan sohasida muhim bosqich va tarixiy yangi davrni vujudga keltirgan. Amir Temur mohir sarkarda bo'lishga qaramay har-doim ilm-fan va madaniyatga alohida e'tibor bergan. Qaror chiqarishdan avval ilm-fan va din peshvolari bilan maslahatlashib ulrning fikrlarini inobatga olgan holda hukm chiqargan. Temurning eng katta xizmatlaridan biri shuki, u madaniyat va ilm-fanga doimo homiylik qildi, o'z saroyiga olim-u fuzalolar davlat arboblarni to'pladi va ularga sharoit yaratdi. Mamlakatni ham odillik bilan boshqardi, shuning uchun ham uning davrida ilm-fan, ma'daniyat va savdo-sotiq rivojlandi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov Amir Temur haqida fikr bildirdi ekan shunday deydi: "Tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi"²⁷.

Temuriylar davlati nafaqat hozirgi O'zbekiston, balki butun Yevroosiyo hududlarini o'z ichiga olgan ulkan va qudratli davlatni tuzishga va eng asosiysi, bu yerda yashagan 72 millatni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar iskanjasidan xalos etish barobarida parchalanib ketgan Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlarini birlashtirib, jahon silsilasida ulkan qudratli mamlakatni barpo etishdek buyuk tarixiy missiyani bajardi. Shuni ta'kidlash kerakki, aynan Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kelishi va Markaziy Osiyoda yashaydigan xalqlarni birlashtirishi Yevroosiyo mintaqasida turli ilmiy va madaniy maktablarning ochilishiga hamda turli kashfiyot va ixtirolarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. O'rta Osiyoda sharq ilmiy tafakkuri umumlashib, uyg'unlashib, bir-birining eng ilg'or taraflarini olib, yangi taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarildi²⁸. Darhaqiqat, Temurning

²⁷ Xaitov B.T. "TEMUR TUZUKLARI"NING YOSHLAR TARBIVASIDAGI O'RNI // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/temur-tuzuklari-ning-yoshlar-tarbiyasidagi-o-rni> (дата обращения: 27.03.2024).

²⁸ Bakoyeva M. T. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temur-va-temuriylar-davrida-ilm-fan> (дата обращения: 27.03.2024).

hukmronligi davrida davlat sarhadlari kengaydi, ulkan saltanatda tinchlik o'rnatildi. Amir Temurning kurash maydoniga kelishi Markaziy Osiyoda yashaydigan barcha xalqlarni birlashtirdi. Amir Temurning ilmga bo'lgan munosabatini uning davlat boshqaruvida ham ko'rishimiz mumkun.

VII-VIII asrlarda arablar bosqini O'rta Osiyo hududiga o'zining salbiy jihatlari bilan birgalikda ijobiy tomonlarini ham ko'rsatdi. Arablar bosqinidan so'ng sharqda ilk uyg'onish davri aynan O'rta Osiyo hududida ro'y berdi. Bu davrda ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqdi-ki, ularning ma'naviy dunyosi hali hamon oramizda yashayotganligini xis etishimiz mumkin. Ikkinchi ana shunday uyg'onish davri ham aynan sharqda vujudga keldi. Bu Amir Temur va temuriylar davriga to'g'ri keldi va davr tarixiga ikkinchi uyg'onish davri bo'lib kirdi.

Amir Temurning o'zi o'qimishliligi, zukkoligi, adabiyot va san'atga qiziqishi, shuning bilan birgalikda o'z ona tilidan tashqari boshqa bir nechta tillarni ham yaxshi bilishi uni turli davlatlardan kelgan olimu fuzalolar, allomalar bilan ko'plab suhbatlar uyushtirishida, ilm ahlini o'llab quvvatlashida aniq namoyon bo'ladi. Bu Amir Temurning bunday olib borgan oqilona faoliyati zamirida XIV-XV asrlarda sharq musulmon olamida IX- XII asrdan so'ng yana bir uyg'onish davrini renessansni vujudga kelishida juda katta omil bo'lib xizmat qildi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi²⁹.

Amir Temur va temuriylar davri ko'pincha o'rta asrlarning bir qismi sifatida ta'riflansa-da, bu davrni "Ikkinchi uyg'onish davri"ning vujudga kelishi bilan ham ajralib turadi. Amir Temur va temuriylar davri qaysidir ma'noda ikkinchi uyg'onish davrining yuzaga kelganligi bilan ham harakterlanadi. Temuriylar davri san'atning me'morchilik, naqqoshlik, haykaltaroshlik kabi sohalarda katta taraqqiyotga erishdi. Shahar va saroylarning ham o'ziga hos estetik jihatdan boy arxitekturasi o'zining nafis bezaklari, o'ziga xos uslublari bilan kishi e'tiborni tortdi. Bu davrda fan, matematika, astronomiya va tibbiyot kabi sohalarda muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa Ulug'bekning asarlari va astronomiyaga oid tadqiqotlari bu davrning aqliy taraqqiyotini ifodalaydi, Yana bu davrda mashhur shoir va yozuvchilar asarlar yaratildi, adabiyotning oltin davrini boshidan kechirdi. Bu davrda maktablar (madrasalar) va kutubxonalar rivojlanib, madaniyat markaziga aylandi. Bularning barchasi aynan Amir Temur va temuriylar davri madaniyati bilan xarakterlanadi.

Umrining aksariyat qismini harbiy yurishlarda o'tkazgan Amir Temur safarlarda ham olimlar bilan hamsuhbat bo'lar edi. Jumladan, Damashq qamal qilingan paytda, mashhur arab tarixchisi va mutafakkiri ibn Xaldun (1332 – 1406 yy.) bilan suhbatda bo'lgan. Uchrashuv chog'ida mashhur tarixchi Sohibqironga Qur'oni Karimning go'zal bir nusxasini hadya qiladi va Amir Temur o'rnidan turib, muqaddas kitobni o'pib, boshiga qo'ygan. Xuddi ana shunday hurmat va ehtiromni Sohibqiron o'zi zabt etgan mamlakatlardagi olim-u fuzalo, dono kishilarga nisbatan ham ko'rsatgan. "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, – deb ta'kidlaydi bu haqda Amir Temur, – o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutib,

²⁹ Berdiyev O.A. TEMURIYLAR DAVRIDA IKKINCHI RENESSANS VUJUDGA KELISHIDA YARATILGAN SHART SHAROITLAR // Scientific progress. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/temuriylar-davrida-ikkinchi-renessans-vujudga-kelishida-yaratilgan-shart-sharoitlar> (дата обращения: 27.03.2024).

sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim"³⁰.

Yuqorida aytib o'tganimizdek Amir Temur doymo din peshvolari va olimlarga hurmat bildirgan hattoki o'zining "Temur tuzuklari"da ham olimu-fuzalo, fozillar toifasiga alohida ehtirom ko'rsatganini, ularni doimo o'ziga yaqin tutganlarini hatto jang safarlarida ham birga olib yurganlarini tarixchi olimlarning asrlarida uchratishimiz mumkun. Hatto u bosib olgan davlatlarida ham ilm-fan sohiblariga alohida ehtirom ko'rsatganligini ularni o'ziga yaqin tutganliklarini ko'rishimiz mumkun. Ularning barchasiga hurmat va ehtirom ko'rsatgan, bir joyga jamlagan va ularga sharoitlar yaratib bergan.

Tarixchilarning ma'lumotiga ko'ra, Amir Temur o'z mamlakatiga Markaziy Osiyodan hamda harbiy yurishlar natijasida qo'lga kiritilgan davlatlarning juda ko'p olimlarini jam qilgan. Ulardan Mavlono Abdulmalik, Mir Sayyid Jurjoniy, Shamsuddin Muhammad al Jazariy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Mavlono Fas'hiddin, Ahmad Kirmoniylarni misol qilib keltirishimiz mumkin. O'z zamonasining yetuk tarixnafi, adibi, shoiri va fiqh olimi hisoblanmish Ibn Arabshoh "Temur tarixida taqdir ajoyibotlari" kitobida Amir Temurning yuksak ma'naviyat sohibi hamda ilmu fan ahliga bo'lgan munosabati haqidagi fikrlarini quyidagicha tasvirlaydi: "Temur olimlarga mehribon bo'lib, sharofatli sayyidlarni o'ziga yaqin tutardi. Ulamolalar va fozillarga izzat hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan muqaddas tutardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, ular bilan mazmunli bahslar yuritar edi"³¹.

Darhaqiqat Amir Temur davrida ilm-fan ahliga ko'rsatilgan bunday hurmat ehtirom va etibori tufayli ham Temurning davlati yanada yuksalgan. Uning ilm-fan va ma'daniyat sohasida qilgan ishlari va olimu-fuzalolargarni qo'llab-quvvatlashi, ularga shart-sharoyitlar yaratganligi uchun ham Samarqand dunyoning ilm-fan madaniyat va ma'rifat markazlariga aylandi deb bemaolol ayta olishimiz mumkin. Temur va temuriylar davrini o'rganar ekanmiz, yuqorida ta'kidlab o'tilgan asoslar orqali Amir Temur kabi buyuk ajdodlarimizning tarixda qilgan ishlari bugungi kungacha ilm-fan ravnaqiga o'zining hissasini qo'shib kelganligini bilamiz va o'z ota bobolariga loyiq ajdod bo'lish mas'uliyatini his qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xaitov B.T. "TEMUR TUZUKLARI"NING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI // Scientific progress. 2021. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/temur-tuzuklari-ning-yoshlar-tarbiyasidagi-o-rni> (дата обращения: 27.03.2024).
2. Bakoyeva M. T. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2022. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temur-va-temuriylar-davrinda-ilm-fan> (дата обращения: 27.03.2024).

³⁰ Jo'rayeva M. AMIR TEMUR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI // Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar nomli ilmiy, masofafaviy onlayn konfrensiya. 2023. №20. URL <https://zenodo.org/records/7952613>.

³¹ O'roqova, Nargiza Salomovna AMIR TEMUR MA'NAVIYATINING BA'ZI JIHATLARI // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temur-ma-naviyatining-ba-zi-jihatlari> (дата обращения: 27.03.2024).

3. Berdiyev O.A. TEMURIYLAR DAVRIDA IKKINCHI RENESSANS VUJUDGA KELISHIDA YARATILGAN SHART SHAROITLAR // Scientific progress. 2022. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/temuriylar-davrda-ikkinchi-renessans-vujudga-kelishida-yaratilgan-shart-sharoitlar> (дата обращения: 27.03.2024).

4. Jo'rayeva M. AMIR TEMUR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTI.//Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar nomli ilmiy, masofafaviy onlayn konfrensiya.2023. №20. URL <https://zenodo.org/records/7952613>.

5. O'roqova, Nargiza Salomovna AMIR TEMUR MA'NAVIYATINING BA'ZI JIHATLARI // ORIENSS. 2022. №5-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/amir-temur-ma-naviyatining-ba-zi-jihatlari> (дата обращения: 27.03.2024).